

QO'SHTEPALIK YOSHLAR - IJOD MAKTABIDA

Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida 2021 yilning 19 yanvar kuni "Ma'naviy - ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi vazifa va topshiriqlar ijrosini bajarish maqsadida, Qo'shtepa tumani hokimligi tashabbusi bilan tuman Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan iqtidorli 20 nafar o'quvchilar joriy yilning 29 yanvar kuni Marg'ilon shahrida joylashgan Erkin Vohidov ijod maktabiga tashrif buyurdilar. Tashrif davomida o'quvchilar Erkin Vohidov muzeyida bo'lib, u yerdagi boy, ma'naviy meros bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida o'quvchi-yoshlar Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida tashkil etilgan mahorat darslarida ishtirok etdilar.



Mahorat darslarida O'zbekiston xalq shoirasi Enaxon Siddiqovaning ham ishtiroki adabiy muhitga o'zgacha bir shukuh berdi.

Yoshlarimizni zamonamiz qahramonlari, boy ma'naviy merosimizni o'rganishga katta hissa qo'shgan bugungi tashrif hamda adabiy uchrashuv qizg'in savol-javob va bahs munozaralarga boy, ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi.

U.Xolmatov,

tuman hokimining maslahatchisi.

2021-01-30 09:48:20